

**Qora va rangli metall parcha va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish), qayta
ishlash hamda realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibining joriy
etilishi to'g'risida
MA'LUMOTNOMA**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-apreldagi 175-son qarori bilan Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur qaror bilan, jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qaroriga ham tegishli o'zgartirishlar kiritilib, qora va rangli metall parchalari hamda chiqindilarini tayyorlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash bo'yicha pasportlar tasdiqlandi.

Ma'lumot uchun. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 18¹-moddasiga muvofiq, tadbirkorlik subyektlari uchun **yangi majburiyatlarni** nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari kamida uch oydan keyin kuchga kiradi. Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-apreldagi 175-son qarori bilan joriy etilayotgan mazkur litsenziyalash tartibining **2026-yil 20-iyuldan kuchga kirishi** belgilangan.

Ushbu pasportlarda litsenziyalanadigan faoliyat turlari, litsenziya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar, arizalarni ko'rib chiqish muddatlari, shuningdek litsenziya talablari va shartlari belgilangan. Jumladan, pasportlarga muvofiq litsenziyalovchi organ sifatida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi belgilangan.

Litsenziyalanadigan faoliyatning kichik turlari

- a) qora va rangli metall parcha va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish);
- b) qora va rangli metall parcha va chiqindilarini qayta ishlash va realizatsiya qilish.

Ariza beruvchilar toifasi

1. Qora va rangli metall parcha va chiqindilarini **tayyorlash (xarid qilish)** faoliyati uchun litsenziya olish maqsadida murojaat qilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar;

2. Qora va rangli metall parcha va chiqindilarini **qayta ishlash hamda realizatsiya qilish** faoliyati uchun litsenziya olish maqsadida murojaat qilgan yuridik shaxslar.

Ma'lumot uchun. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-apreldagi 175-son qarori bilan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-iyundagi 425-son qarori bilan tasdiqlangan Rangli va qora metallar parchalari, chiqindilari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizomga quyidagi xatboshilar bilan to'ldirilgan:

"tayyorlash - metall parchalarini sotib olish, saralash hamda kesish, maydalash va (zaruratga ko'ra) presslash orqali o'lchamga keltirish."

“qayta ishlash va realizatsiya qilish - tayyorlangan (saralangan va o‘lchamga keltirilgan) qora va rangli metall lomi hamda chiqindilarini texnologik ishlov berish (qayta eritish, quyish, prokatlash yoki boshqa metallurgik qayta ishlash amaliyotlari) orqali yarim tayyor yoki tayyor metall mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish;”

Litsenziya olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar

Qora va rangli metall parcha va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish) faoliyatini amalga oshirish uchun:

ariza;
arizada ariza beruvchining rekvizitlari (nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, manzili, bank hisob raqami, telefon, e-mail, veb-sayt mavjud bo‘lsa);
faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili;
metall parcha va chiqindilarini qabul qilish shoxobchalari to‘g‘risida ma’lumot;
qabul qilish shoxobchasi pasporti;
bosh reja;
muhandislik-texnik kommunikatsiyalar mavjudligi to‘g‘risida hujjatlar.

Qora va rangli metall parcha va chiqindilarini qayta ishlash va realizatsiya qilish faoliyatini amalga oshirish uchun:

ariza;
arizada yuridik shaxs rekvizitlari;
qabul qilish shoxobchalari to‘g‘risida ma’lumot;
ishlab chiqarish obyekti bo‘yicha hujjatlar, jumladan:
korxona pasporti,
bosh reja,
ishlab chiqarish sikli,
loyiha hujjatlari,
texnologik yo‘riqnomalar,
muhandislik-texnik kommunikatsiyalar haqidagi hujjatlar;
eritish uskunasi (pech) pasporti va ishlab chiqarish quvvati to‘g‘risida ma’lumot;
rahbar va muhandis-texnik xodimlarning malakasi, attestatsiyasi va maxsus tayyorgarligiga oid hujjatlar;
korxonaning ichki me’yoriy hujjatlari mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot.

Ariza berish tartibi

Talabgor litsenziya olish uchun ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlarni **“Litsenziya” AT** yoki **O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali** (keyingi o‘rinlarda — YAIDXP) orqali elektron shaklda yuboradi.

Arizalar **“Litsenziya” AT** yoki YAIDXP orqali dam olish va bayram kunlaridan qat’i nazar **har kuni 24 soat davomida** yuborilishi mumkin.

Bunda arizalar ish vaqtidan keyin yoki dam olish va bayram kunlari kelib tushganda navbatdagi ish kuni arizalarning litsenziyalovchi organga tushgan va litsenziyalovchi organ tomonidan qabul qilingan kun hisoblanadi.

Arizani ko‘rib chiqish muddatlari

Qora va rangli metall parcha va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish) faoliyati uchun arizani ko‘rib chiqish muddati **10 ish kuni**, qayta ishlash va realizatsiya qilish faoliyati uchun esa **20 ish kuni** etib belgilangan.

Yig‘im va davlat boji miqdori

Litsenziya talabgorlaridan arizani ko‘rib chiqish uchun bazaviy hisoblash miqdorining **4 baravari miqdorida yig‘im** undiriladi. Litsenziya berilganligi uchun esa bazaviy hisoblash miqdorining **30 baravari miqdorida davlat boji** to‘lanadi.

Asosiy talablar

Litsenziya talabgorlari uchun quyidagi **asosiy talablar** nazarda tutilgan:

- metall parchalari va chiqindilarini qabul qilish punktlari mavjud bo‘lishi;
- tegishli tarozi va o‘lchov vositalari bilan jihozlangan bo‘lishi;
- radiatsion nazorat va xavfsizlik talablariga rioya qilinishi;
- qayta ishlash faoliyati uchun zarur texnologik uskunalar va ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo‘lishi;
- sanitariya, ekologiya, yong‘in xavfsizligi hamda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi majburiy talablarga muvofiqlik ta‘minlanishi.

Litsenziya berishda kelishiladigan organlar

Litsenziya berish jarayonida **tegishli vakolatli organlarning xulosalari** olinadi. Jumladan:

- **Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi** tomonidan tabiatni muhofaza qilish va ekologiya bo‘yicha qo‘yiladigan minimal talablar litsenziya talabgori tomonidan bajarilganligi;

- **Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi** tomonidan sanoat xavfsizligi bo‘yicha qo‘yiladigan minimal talablar bajarilganligi;

- **O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi** tomonidan o‘rnatilgan texnologik jarayonlar va asbob-uskunalarining holati texnik jihatdan tartibga solish bo‘yicha normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi yuzasidan xulosalar taqdim etiladi.

Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar

Litsenziyalash pasportlarida **qo‘pol ravishda** buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar ham belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Qora metall parcha hamda chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish) sohasida:

- sertifikatlangan va kalibrlangan tarozilar (avtomobil, osma platforma va h.k.);
- yuklash-tushirish mexanizmlari va uskunalari (metall parchalari uchun yuklagich, bogʻlangan va boʻlakli tovarlar uchun koʻtarish moslamalari boʻlgan manipulyator (ilgak, ushlagich, magnit);
- yongʻinga qarshi oʻt oʻchirish vositalari mavjudligi.

Qora metall parcha va chiqindilarini qayta ishlash hamda realizatsiya qilish sohasida:

- dozimetrik va radiatsion kuzatuv moslamalari (sertifikatlangan radiometrlar, dozimetrlar);
- belgilangan tartibda qiyoslashdan oʻtkazilgan va kalibrlangan tarozilar (avtomobil, osma, platforma);
- poʻlat eritish pechlarida poʻlat eritilgandan soʻng poʻlatni kompleks qayta ishlaydigan agregatda ishlov berilishi;
- akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasining mavjud boʻlishi hamda ushbu laboratoriyada eritilgan poʻlat va tayyor mahsulotlarning har bir partiyasini qatʼiy sifat nazoratidan oʻtkazish tartibi mavjudligi;
- yongʻinga qarshi oʻt oʻchirish vositalari mavjudligi;
- Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, ishlab chiqarish xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi, yongʻin xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi va ekologiya talablari va normalariga rioya etishi.

Rangli metall parcha hamda chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish) sohasida:

- sertifikatlangan va kalibrlangan tarozilar (avtomobil, osma platforma va h.k.);
- yuklash va tushirish mexanizmlari va uskunalari (metall parchalari uchun yuklagich, bogʻlangan va boʻlakli tovarlar uchun koʻtarish moslamalari boʻlgan manipulyator (ilgak, ushlagich, magnit);
- yongʻinga qarshi oʻt oʻchirish vositalari mavjudligi.

Rangli metall parcha va chiqindilarini qayta ishlash hamda realizatsiya qilish sohasida:

- dozimetrik va radiatsion kuzatuv moslamalari (sertifikatlangan radiometrlar, dozimetrlar);
- belgilangan tartibda qiyoslashdan oʻtkazilgan va kalibrlangan tarozilar (avtomobil, osma, platforma);

- yuklash-tushirish mashinalari va uskunalari (metall parchasi yuklagichi, quyma, bog'langan va bo'lakli tovarlar uchun ko'tarish moslamalari bo'lgan manipulyator (ilgak, ushlagich, magnit);

- yong'inga qarshi o't o'chirish vositalari mavjudligi;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, ishlab chiqarish xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi va ekologiya talablari va normalariga rioya etishi.

Javobgarlik masalalari

Shu bilan birga, qonunchilikka muvofiq, qora va rangli metall parcha va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish), qayta ishlash hamda realizatsiya qilish bo'yicha faoliyat litsenziyasiz amalga oshirilganda yoki litsenziya qalbaki hujjatlar asosida olinganda, **yuridik shaxslarga** nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining **300 baravari miqdorida jarima** qo'llaniladi. Bunda litsenziyalash sohasidagi huquqbuzarliklar uchun **jismoniy shaxslar ma'muriy** va (yoki) **jinoiy javobgarlikka**, yuridik shaxslar esa moliyaviy sanksiya tarzida jarimaga tortilishi belgilangan.

Bundan tashqari, litsenziya talablari va shartlari buzilgan taqdirda, huquqbuzarlik xususiyati va og'irlik darajasidan kelib chiqib, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki litsenziyani bekor qilish choralari ham qo'llaniladi. Xususan, litsenziya talablari va shartlari bir yil davomida ikki va undan ortiq marta buzilganda yoki litsenziyalash **pasportlarida qo'pol buzilish deb belgilangan talablar bir marta shunday tarzda buzilganda**, litsenziyani bekor qilish masalasi qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.